



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,  
22-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
<i>Abdiqayumova Malika</i>	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni .....	14
<i>Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi</i>	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish .....	18
<i>Atamirzayeva Ezoza</i>	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan .....	22
<i>Aminova Asilaxon Sobir qizi</i>	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
<i>Уразова М. Б., Абатова У. Б.</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi .....	30
<i>Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Gaipova Akjunis Qayratovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
<i>Alimov Bekzod Nematovich</i>	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi .....	41
<i>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</i>	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar .....	48
<i>Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi</i>	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education .....	53
<i>Yusupova Mukhabbat Anatolyevna</i>	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
<i>Erkinova Sevara Najmiddin qiz</i>	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study .....	61
<i>Gulsara Khakimova</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
<i>Hikmatova Jamila Fatoh qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
<i>I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna</i>	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi .....	73
<i>Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi</i>	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
<i>Murodova Farangis G'anisherovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi .....	81
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi .....	85
<i>Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna</i>	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish .....	89
<i>Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi</i>	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
<i>Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	96
<a href="#">Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi</a>	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции .....	101
<a href="#">Улугмурадова Шохсанам</a>	



# MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MUAMMOGA ASOSLANGAN O'QITISH VOSITASIDA MTT TARBIYACHILARINING 4K KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ravshanova Xafiza Komilovna

Samarqand viloyati pedagogik mahorat Markazi o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-6041-4917

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini - kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiyani - muammoga asoslangan o'qitish vositasida rivojlantirish texnologiyasi yoritildi. Tadqiqotning maqsadi muammoli vaziyat, kasbiy keys, reflektiv tahlil va hamkorlikdagi yechim ishlab chiqish mexanizmlariga tayangan holda amaliy texnologik model taklif etishdan iborat. Tadqiqotda tahlil, qiyosiy sharh, pedagogik modellashtirish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish usullaridan foydalanildi. Natijada malaka oshirish kurslarida qo'llash mumkin bo'lgan bosqichma-bosqich texnologiya, baholash mezonlari hamda 4K ko'nikmalarni aniqlash indikatorlari ishlab chiqildi. Taklif etilgan texnologiya tarbiyachining kasbiy refleksiyasi, guruhviy ishlash madaniyati va real pedagogik muammoni yechish salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** muammoga asoslangan o'qitish, 4K ko'nikmalar, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, malaka oshirish, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya, texnologiya.

**Abstract:** This article examines a technology for developing preschool teachers' 4C skills - creativity, critical thinking, communication and collaboration - through problem-based learning in professional development programs. The study proposes a step-by-step instructional model grounded in authentic pedagogical problems, case work, collaborative solution design and reflective analysis. Analytical review, comparative synthesis and pedagogical modelling were used. As a result, a practical technology, assessment indicators and implementation recommendations were developed for in-service training contexts.

**Key words:** problem-based learning, 4C skills, preschool education, professional development, teacher training, creativity, critical thinking, communication, collaboration.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается технология развития 4К-навыков педагогов дошкольных образовательных организаций - креативности, критического мышления, коммуникации и коллаборации - в процессе повышения квалификации на основе проблемно-ориентированного обучения. Цель исследования заключается в разработке практической технологической модели, основанной на использовании проблемных ситуаций, профессиональных кейсов, рефлексивного анализа и механизмов совместного выработки решений. В исследовании применялись методы анализа, сравнительного обзора, педагогического моделирования и разработки практических рекомендаций. В результате была предложена поэтапная технология, критерии оценки и индикаторы определения уровня сформированности 4К-навыков, применимые в курсах повышения квалификации. Предложенная технология способствует развитию профессиональной рефлексии педагогов, культуры групповой работы и способности эффективно решать реальные педагогические задачи.

**Ключевые слова:** проблемно-ориентированное обучение, 4К-навыки, дошкольное образование, педагог, повышение квалификации, креативность, критическое мышление, коммуникация, коллаборация, технология.

## KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining roli faqat bolaga tayyor bilim berish bilan cheklanmaydi. U o'quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalovchi, kuzatuvchi, refleksiya yurituvchi, ota-ona bilan muloqot qiluvchi va bolada XXI asr kompetensiyalarini shakllantiruvchi pedagog sifatida maydonga chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan malaka oshirish tizimi tarbiyachini yangi pedagogik vaziyatlarga moslashishga, muammoni ko'ra olishga va uni hamkorlikda hal etishga tayyorlashi kerak. Bugungi ta'lim diskursida 4K ko'nikmalar - kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya - kasbiy samaradorlikning tayanch komponentlari sifatida talqin qilinmoqda. OECD Learning Compass 2030 ta'lim natijalarini bilim, ko'nikma, qadriyat va refleksiv harakat birligida ko'rishni taklif etsa, P21 modeli samarali muloqot, hamkorlik, tanqidiy va ijodiy fikrlashni ta'limning zarur natijasi sifatida belgilaydi. Maktabgacha ta'limda esa mazkur ko'nikmalar tarbiyachining kundalik faoliyatida: mashg'ulotni tashkil etish, markazlar faoliyatini boyitish, bolalar bilan dialog qurish, ota-onalar bilan ishlash va pedagogik muammolarga yechim topishda namoyon bo'ladi.

Muammoga asoslangan o'qitish ana shu ehtiyojga javob bera oladigan yondashuvlardan biridir. Mazkur yondashuvda tinglovchi tayyor qoida yoki algoritmi yodlab olish emas, balki real yoki realga yaqin kasbiy vaziyatni tahlil qiladi, muammoni aniqlaydi, dalillarga tayangan holda taxminlar ilgari suradi, hamkorlikda yechim ishlab chiqadi va uning natijasini baholaydi. Shuning uchun muammoga asoslangan o'qitish malaka oshirish kurslari uchun ayniqsa muhim: u tarbiyachining tajribasi bilan yangi bilimni bog'laydi, o'quv materialini amaliyotga ko'chiradi va kasbiy refleksiyaning kuchaytiradi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab nazariy qarashlar mavjud bo'lsa-da, aynan malaka oshirish sharoitida muammoga asoslangan o'qitish vositasida amalga oshiriladigan bosqichli texnologik model yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois ushbu maqolada IMRAD talabi asosida mazkur texnologiyaning nazariy-metodik asoslari va amaliy qo'llash mexanizmlari yoritiladi.

Tadqiqotning maqsadi - malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish va metodik jihatdan asoslash. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1) muammoga asoslangan o'qitish hamda 4K ko'nikmalarining ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish;
- 2) malaka oshirish tinglovchisining kasbiy ehtiyojlari va real pedagogik muammolarini aniqlash;
- 3) 4K ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologik bosqichlarni modellashtirish;
- 4) amaliyotga joriy etish uchun baholash indikatorlari va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik sharh, ilmiy manbalarni sintez qilish, pedagogik modellashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish usullaridan foydalanildi. Xorijiy adabiyotlarda muammoga asoslangan o'qitishning mohiyati Barrows, Savery, Hmelo-Silver kabi olimlar ishlanmalarida yoritilgan bo'lsa, 4K ko'nikmalarining mazmuni OECD va P21 kabi xalqaro platformalarda konseptual jihatdan asoslangan. O'zbek pedagogik manbalarida esa 4K modeli, interaktiv metodlar va maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar bilan bog'liq qator qarashlar shakllangan.

Metodologik yondashuv sifatida konstruktivistik ta'lim falsafasi tanlandi. Unga ko'ra, bilim tinglovchiga tayyor shaklda berilmaydi; u muammoni tahlil qilish, tajribani qayta ko'rib chiqish va ijtimoiy muloqot jarayonida quriladi. Demak, malaka oshirish mashg'ulotlari ham tinglovchining kasbiy tajribasini muammoli vaziyat bilan to'qnash keltirib, yangi yechimlarni birgalikda ishlab chiqishga yo'naltirilishi kerak.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning amaliy birligi sifatida MTT tarbiyachilariga xos quyidagi muammolar guruhi asos qilib olindi:

- bolalarning faolligini pasaytiruvchi mashg'ulot usullari;
- rivojlanish markazlarida differensial yondashuvning sustligi;
- ota-onalar bilan samarali hamkorlikning yetarli emasligi;
- kuzatish va rivojlanish xaritasidan amaliy foydalanishdagi qiyinchiliklar;
- bolalarda 4K elementlarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni loyihalash muammosi.

Ana shu kasbiy vaziyatlar tinglovchi uchun muammoli holat sifatida taqdim etildi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar asosida malaka oshirish jarayonida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan muammoga asoslangan o'qitish texnologiyasining 6 bosqichli modeli ishlab chiqildi. Modelning ustunligi shundaki, unda nazariy bilim, muammoli vaziyat, guruhiy faoliyat, refleksiya va baholash o'zaro bog'langan yagona jarayon sifatida ko'riladi.

1-jadval: **Muammoga asoslangan o'qitish asosida 4K ko'nikmalarni rivojlantirish texnologiyasi**

Bosqich	Mazmuni	Rivojlanadigan 4K komponenti	Metod va vositalar
<b>1. Muammoni ochish</b>	Real kasbiy vaziyat, muammoli savol yoki keys taqdim etiladi.	Kritik fikrlash, kommunikatsiya	keys, video-vaziyat, savol-javob
<b>2. Tahlil</b>	Muammoning sabablari, ishtirokchilari va sharoitlari aniqlanadi.	Kritik fikrlash	fishbone, klaster, kuzatish varaqasi
<b>3. G'oya ishlab chiqish</b>	Guruhlar bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqadi.	Kreativlik, kollaboratsiya	brainstorming, dizayn fikrlash elementi
<b>4. Yechimni asoslash</b>	Har bir guruh o'z taklifini dalillar bilan himoya qiladi.	Kommunikatsiya, kritik fikrlash	taqdimot, debat, mini-pitch
<b>5. Amaliy loyihalash</b>	Yechim mashg'ulot ishlanmasi, markaz faoliyati yoki ota-ona bilan ishlash rejasi ko'rinishida ishlab chiqiladi.	Kreativlik, kollaboratsiya	mikroleson, loyiha topshirig'i
<b>6. Refleksiya va baholash</b>	Jarayon va natija mezonlar asosida tahlil qilinadi, o'zaro va o'zini baholash amalga oshiriladi.	Barcha 4K komponentlari	rubrika, reflektiv kundalik, feedback

*Birinchi bosqichda* tinglovchi tayyor mavzu emas, balki hayotiy muammoni ko'radi. Masalan: "Rivojlanish markazida ayrim bolalar faol, boshqalari esa passiv qolmoqda. Bunday vaziyatda tarbiyachi qanday tashkilotchilik o'zgarishlarini kiritishi kerak?" Mazkur savol tinglovchini faollashtiradi, mavjud tajribani esga tushiradi va muammoning asl mohiyatini ochishga undaydi.

*Ikkinchi bosqich* - tahlil bosqichi - kritik fikrlashni kuchaytiradi. Tinglovchi muammoning sababi faqat bolada emasligini, balki topshiriq dizayni, pedagogik muhit, resurslar, vaqt taqsimoti yoki muloqot uslubi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkinligini anglaydi. Bu bosqichda dalilga tayangan fikrlash, kuzatuv ma'lumotini sharhlash va turli omillarni solishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

*Uchinchi va to'rtinchi bosqichlar* 4K ko'nikmalarining integrallashgan rivojiga xizmat qiladi. Tinglovchilar guruhlarda bir nechta variantli yechimlarni taklif etish jarayonida kreativlikni, g'oyani himoya qilish va muloqot qilish jarayonida kommunikatsiyani, o'zaro kelishish va vazifalarni taqsimlashda kollaboratsiyani namoyon etadilar. Shu bilan birga, eng maqbul variantni tanlashda kritik fikrlash davom etadi.

*Beshinchi bosqich* texnologiyaning amaliy jihatini kuchaytiradi. Bu yerda tinglovchilar muammoni hal etish bo'yicha aniq pedagogik mahsulot yaratadilar: rivojlanish markazi uchun yangi topshiriqlar paketi, ota-ona bilan ishlash ssenariysi, kuzatuv natijasiga asoslangan individual reja yoki bolalarda 4K elementlarini shakllantiruvchi mashg'ulot fragmenti. Bu mahsulot malaka oshirishni real amaliyot bilan bog'laydi.

*Oltinchi bosqichda* esa refleksiya markazga chiqadi. Tinglovchi "Nimani o'rgandim?", "Qanday dalil meni ishontirdi?", "Guruhdagi ishim samarali bo'ldimi?", "Bu yechimni o'z MTT amaliyotimga qanday moslashtiraman?" kabi savollar asosida o'z faoliyatini baholaydi. Refleksiya kasbiy o'sishning ichki mexanizmini faollashtiradi va malaka oshirish natijasining barqarorligini oshiradi.

4K ko'nikmalarni baholash indikatorlari. Tadqiqot natijasida 4K ko'nikmalarni malaka oshirish jarayonida kuzatish uchun indikatorlar tizimi ham ishlab chiqildi. Kreativlik bo'yicha indikatorlar: muammoning noodatiy yechimlarini taklif etishi, mavjud resursdan yangicha foydalanishi, pedagogik vaziyatga mos original g'oya ishlab chiqishi. Kritik fikrlash indikatorlari: sabab-oqibatni ajrata olishi, dalil va taxminni farqlashi, yechimni mezon asosida tanlashi. Kommunikatsiya indikatorlari: fikrni aniq bayon etishi, savol bera olishi, fikrni dalillab himoya qilishi, tinglash madaniyatiga rioya qilishi. Kollaboratsiya indikatorlari: vazifani taqsimlay olishi, guruhdagi kelishmovchilikni konstruktiv hal qilishi, umumiy natija uchun mas'uliyatni his qilishi. Mazkur indikatorlar asosida rubrikali baholash, o'zaro baholash varaqasi va reflektiv kundalikdan foydalanish tavsiya etildi. Bunday yondashuv baholashni faqat yakuniy natijaga emas, balki jarayonning o'ziga ham yo'naltiradi.

Olingan natijalar muammoga asoslangan o'qitishning malaka oshirish tizimi uchun samarali vosita ekanini ko'rsatadi. Birinchidan, u tinglovchini passiv eshituvchidan faol tahlilchi va amaliyotchi maqomiga olib chiqadi. Ikkinchidan, 4K ko'nikmalarini alohida-alohida emas, balki bir butun kasbiy faoliyat tarkibida rivojlantiradi. Uchinchidan, real kasbiy vaziyatlar bilan ishlash tarbiyachining kursdagi o'qishini o'z ish joyidagi ehtiyojlar bilan bog'laydi.

Barrows muammoga asoslangan o'qitishni o'quvchini muammoni yechish faoliyatiga jalb etuvchi, bilimni kontekst ichida egallashga yordam beruvchi yondashuv sifatida tavsiflaydi. Savery esa PBLni noaniq, ko'p variantli muammolar bilan ishlash orqali mustaqil va hamkorlikdagi o'rganishni kuchaytiradigan model sifatida talqin qiladi. Ushbu qarashlar biz taklif qilayotgan texnologiyaning nazariy poydevorini mustahkamlaydi. OECD hamda P21 yondashuvlari nuqtai nazaridan qaralganda, 4K ko'nikmalarini shakllantirish faqat o'quvchilarga emas, avvalo pedagogning o'ziga ham tatbiq etilishi zarur. Chunki bolalarda kreativ va tanqidiy tafakkur, hamkorlik va muloqotni rivojlantira oladigan tarbiyachining o'zi ham shu kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak. Demak, malaka oshirishda muammoga asoslangan o'qitish pedagogning professional identifikatsiyasini yangilashga xizmat qiladi.

Mahalliy manbalar tahlili ham 4K modeli va interaktiv metodlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. O'zbek mualliflari 4K modelini zamonaviy ta'lim samaradorligini oshiruvchi omil sifatida ko'rsatadilar, biroq ko'pincha metodlarning amaliy integratsiyasi umumiy tavsiyalar darajasida qolib ketadi. Bizning texnologiyamiz esa aynan MTT tarbiyachilari malaka oshirish kurslarida qo'llash mumkin bo'lgan aniq bosqich, mahsulot va baholash mezonlarini taklif etishi bilan farqlanadi. Biroq mazkur texnologiyani joriy etishda ayrim cheklolvar ham mavjud. Kurs davomiyligining qisqaligi, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi turlicha ekanligi, guruh ishlar madaniyati yetarli shakllanmaganligi yoki resurslar taqchilligi muammoga asoslangan o'qitish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli trener-o'qituvchining fasilitatorlik mahorati, muammo tanlash sifati va refleksiyaning to'g'ri tashkil etish masalasi alohida e'tibor talab qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi zamonaviy pedagogik talablar bilan uyg'un, amaliyotga yaqin va natijador yondashuvdir. Taklif etilgan 6 bosqichli model tarbiyachini muammoni aniqlash, uni tahlil qilish, kreativ yechim yaratish, yechimni dalillash, amaliy mahsulot ishlab chiqish hamda refleksiya yuritish jarayoniga jalb etadi.

Mazkur texnologiya malaka oshirish kurslarida tinglovchilarning faolligini oshiradi, kasbiy tajriba almashinuvini kuchaytiradi va o'rganilgan bilimni MTT amaliyotiga ko'chirishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, 4K ko'nikmalarini baholash indikatorlari va rubrikali yondashuv trenerga tinglovchi rivojini kuzatish imkonini beradi. Kelgusida ushbu texnologiyani tajriba-sinov asosida turli hududlardagi malaka oshirish kurslarida joriy etish, natijalarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish hamda maktabgacha ta'limning rivojlanish markazlari, ota-ona bilan ishlash, kuzatish va rivojlanish xaritasi kabi yo'nalishlarga mos modullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barrows, H. S. (1986). A taxonomy of problem-based learning methods. *Medical Education*, 20(6), 481-486.
2. Barrows, H. S. (1996). Problem-based learning in medicine and beyond: A brief overview. In L. Wilkerson & W. H. Gijsselaers (Eds.), *Bringing problem-based learning to higher education* (pp. 3-12). San Francisco: Jossey-Bass.
3. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? *Educational Psychology Review*, 16(3), 235-266.
4. Savery, J. R. (2006). Overview of problem-based learning: Definitions and distinctions. *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 1(1), 9-20.
5. OECD. (2019). *OECD Learning Compass 2030*. Paris: OECD Publishing.
6. OECD. (2024). *The Future of Education and Skills: Education 2030*. Paris: OECD Publishing.
7. Partnership for 21st Century Learning. (2019). *Framework for 21st Century Learning Definitions*. Washington, DC: Battelle for Kids.
8. Partnership for 21st Century Learning. (2019). *21st Century Learning for Early Childhood Framework*. Washington, DC: Battelle for Kids.
9. Ganiyeva, M. A. (2024). Ta'limda yangi texnologiya: 4K modeli va uni amalga oshirish yo'llari. *Qo'qon universiteti ilmiy axborotnomasi*.
10. Boltayeva, H. (2025). "4K" modeliga asoslangan ta'limda interaktiv metodlar. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*.
11. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida. (2025). *Ilmiy maqola*.
12. Scholkmann, A. (2020). Problem-based learning. *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 14(2).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.